

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MADANIY IDENTIFIKATSIYA ORQALI IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Yarashova Sitora Yermamatovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Psixologiya (Social Psychology)” yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

Tel. +998934350637

E-mail. @sittoras2501

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17963343>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda madaniy identifikatsiyaning shakllanishi hamda uning ijtimoiylashuv va ijtimoiy ko‘nikmalar rivojida o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda identifikatsiyaning shaxsiy, ijtimoiy, madaniy hamda milliy-etnik komponentlari ochib berilib, ularning 5–7 yosh davrida namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritilgan. Madaniy identifikatsiyaning ijtimoiylashuv jarayoni bilan uzviy bog‘liqligi, bolaning o‘zini muayyan madaniy va ijtimoiy guruh a‘zosi sifatida anglashida tutgan o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, oila va maktabgacha ta‘lim muassasalarining madaniy identifikatsiyaning shakllantirishdagi ahamiyati hamda ushbu jarayon orqali bolalarda muloqot, hamkorlik, murosa, empatiya kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tezisdagi madaniy identifikatsiyaga asoslangan tarbiyaviy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun muhim pedagogik-psixologik omil ekanligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: madaniy identifikatsiya, ijtimoiylashuv, maktabgacha yosh, shaxsiy identitet, ijtimoiy identitet, milliy va etnik identifikatsiya, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, oila, maktabgacha ta‘lim muassasasi.

Annotation. In this thesis, the formation of cultural identity in preschool children and its role in the development of socialization and social skills are analyzed from a scientific and theoretical point of view. The study reveals the personal, social, cultural, and national-ethnic components of identification and highlights the features of their manifestation at the age of 5–7. The inextricable connection of cultural identity with the process of socialization, the role of the child in the realization of himself as a member of a certain cultural and social group, is substantiated. The role of family and preschool educational institutions in the formation of cultural identity, as well as the possibilities of developing social skills in children through this process, such as communication, cooperation, compromise, empathy, were also analyzed. The thesis concludes that educational activity based on cultural identification is an important pedagogical and psychological factor for the successful socialization of preschoolers.

Keywords: cultural identity, socialization, preschool age, personal identity, social identity, national and ethnic identity, cultural values, social skills, family, preschool institution.

Аннотация. В данном тезисе с научно-теоретической точки зрения анализируется формирование культурной идентификации у детей дошкольного возраста и ее роль в развитии социализации и социальных навыков. В исследовании раскрываются личностные, социальные, культурные и национально-этнические компоненты идентификации, освещаются особенности их проявления в возрасте 5–7 лет. Обосновывается неразрывная связь культурной идентификации с процессом социализации, роль ребенка в осознании себя как члена определенной культурной и

социальной группы. Также анализируется значение семьи и дошкольных образовательных учреждений в формировании культурной идентичности и возможности развития у детей таких социальных навыков, как общение, сотрудничество, компромисс, эмпатия посредством этого процесса. В тезисе делается вывод о том, что воспитательная деятельность, основанная на культурной идентификации, является важным педагогико-психологическим фактором успешной социализации детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: культурная идентификация, социализация, дошкольный возраст, личная идентичность, социальная идентичность, национальная и этническая идентичность, культурные ценности, социальные навыки, семья, дошкольное учреждение.

Introduction. Madaniy identifikatsiya ijtimoiy fanlarning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Izohli lug'atlarda ta'kidlanishicha, identifikatsiya shaxsning umumiy va xususiy belgilari majmuiga qarab aynanligini aniqlash kabi mazmunni anglatuvchi atamadir. Maktabgacha yosh davri identifikatsiya jarayoni shakllanadigan ilk bosqich hisoblanib, bu davrda bolada identifikatsiyaning turli komponentlari rivojlanishini kuzatishimiz mumkin.

Bularga misol qilib quyidagilarni keltira olamiz:

Shaxsiy (individual) identifikatsiya—insonning o'zini “men” sifatida anglashi, xotira, idrok va o'z-o'zini kontsentratsiya qilish jarayoni. Bu komponent shaxsning o'zining uzluksizligi va o'zligini bilishda markaziy ahamiyatga ega. 5–7 yoshda shaxsiy identifikatsiya boshlang'ich darajada shakllangan bo'ladi. Bola o'zini “men” sifatida anglaydi, o'z ismini, jinsini, tashqi belgilarini va ayrim shaxsiy xususiyatlarini ajrata boshlaydi. Xotira va idrok jarayonlari faol rivojlanib, bola o'z boshidan kechirgan voqealarni eslab, ularni hozirgi holati bilan bog'lay oladi. Biroq bu yoshda “men” tushunchasi hali barqaror va refleksiv xarakterga ega emas. Bola o'zini baholashda asosan kattalarning munosabati va bahosiga tayanadi. Shuning uchun shaxsiy identifikatsiya uzluksiz, ammo situativ va tashqi ta'sirlarga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy identifikatsiya—shaxsning muayyan ijtimoiy guruh, rol yoki sinfga mansubligini ifodalaydi. Bu jihat shaxsning o'zi va boshqalar bilan o'zaro munosabat orqali shakllanadi. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy identifikatsiya faol rivojlanish bosqichida bo'ladi. Bola o'zini muayyan ijtimoiy rollar orqali anglay boshlaydi: “men—bola”, “men—o'g'il/qiz”, “men—bog'cha tarbiyalanuvchisiman”. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabat, o'yin faoliyati va qoidalar asosida harakat qilish jarayonida bola o'zini guruh a'zosi sifatida his qiladi. Ijtimoiy rollarni qabul qilish va ularga mos xulq-atvor namoyon etish aynan shu yoshda kuchayadi.

Madaniy identifikatsiya—shaxs yoki guruhning tarixiy tajriba, qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy norma bilan bog'lanishi. Madaniy identitet jamiyatning o'tgan tarixi va kollektiv hafsa bilan chambarchas bog'liq. Madaniy identifikatsiya 5–7 yoshda bilvosita va emotsional darajada shakllanadi. Bola milliy bayramlar, urf-odatlar, kiyimlar, ertaklar, qo'shiqlar va oilaviy marosimlar orqali madaniy muhitni qabul qiladi. Biroq, bola madaniyatni ongli tushuncha sifatida emas, balki kundalik tajriba va emotsional taassurotlar orqali o'zlashtiradi. Madaniy identitet bu yoshda kattalar (ota-ona, tarbiyachi) faoliyati va namunasiga kuchli bog'liq bo'ladi.

Milliy va etnik identifikatsiya—mansublik va milliy o'zlikka asoslangan identitet shakli bo'lib, tarixiy meros, til va an'analar orqali uzluksizlikni ta'minlaydi. Milliy va etnik identifikatsiya mazkur yosh davrida dastlabki elementlar darajasida shakllanadi. Bola o'zini

muayyan millat vakili sifatida anglash bilan birga, til, milliy taomlar, an'anaviy kiyimlar va bayramlar orqali mansublik hissini sezadi. "Bizniki", "bizning bayram", "bizning til" kabi iboralar bolada milliy o'zlikning dastlabki belgilari shakllanayotganidan dalolat beradi. Ammo bu identifikatsiya hali barqaror va refleksiv shaklga ega emas.

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat hayotiga integratsiya jarayoni sifatida madaniyatni faqat o'zlashtirish emas, balki unga doir identifikatsiya jarayonini ham o'z ichiga oladi. Madaniy identifikatsiya insonni o'zining milliy va madaniy ildizlari bilan bog'lanishi, o'zligining shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, madaniy identifikatsiyaning ijtimoiylashuvdagi o'rni yoshlar orasida jamiyatga moslashish sifatini oshirishda muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuv jarayonida madaniy identifikatsiyaning shakllanishi, ayniqsa muhimdir. Chunki bu davrda bola o'zining milliy va madaniy qadriyatlarini ilk bor anglab, ular bilan bog'lanishni boshlaydi. Ushbu yoshda bola oiladan olgan madaniy ta'sirlar — til, urf-odatlar, bayramlar va kundalik hayot qoidalari orqali madaniy kodlarni o'zlashtiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari esa bu jarayonni yanada mustahkamlaydi. Sababi, u yerda bolalar birinchi marta kengroq ijtimoiy muhitda boshqalar bilan birgalikda madaniy me'yorlarni tajriba qilib ko'radilar. Shu tariqa, maktabgacha yosh bolalarning madaniy identifikatsiyasi ijtimoiylashuvning poydevori bo'lib xizmat qiladi va ularning kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonida madaniyatning ichki me'yorlari, qadriyatlari va an'analari shaxsning o'zini ijtimoiy guruh a'zosi sifatida qabul qilishi uchun asos bo'ladi. Ushbu jarayon shaxsga ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi va shu bilan birga shaxsning madaniy kontekstda o'zini tutish yo'llarini shakllantiradi. Mexanizmlar sifatida ijtimoiy ta'sir, normativ bosim va guruhga moslashuv jarayonlari faol rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun madaniyatning ichki me'yorlari, qadriyatlari va an'analari bilan tanishish ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yoshda bola oiladan olingan asosiy madaniy qoidalar va normalarni maktabgacha ta'lim muassasasida yanada kengroq ijtimoiy muhitda sinab ko'radi va o'zlashtiradi. Pedagoglar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida normativ bosim va ijtimoiy ta'sir bolani guruhning qoidalarga moslashishga undaydi, bu esa bolaning ijtimoiy identifikatsiyasi va madaniy kontekstdagi o'zini tutishini rivojlantiradi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari bolaga madaniy an'analarga hurmat bilan yondashish va ularni amalda qo'llashni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi, bu esa uning jamiyatdagi faol va madaniyatga mos shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Madaniy identifikatsiya shaxsning madaniy belgilar, til, diniy urf-odatlar va san'at kabi omillar bilan bog'liq o'zligini anglash jarayonidir. Bu jarayon faqat tashqi guruhlariga moslashish emas, balki o'z ichki qadriyatlarini jamiyat madaniyati bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Bolalik davrida boshlanadigan madaniy identifikatsiya o'sish va rivojlanish davomida murakkablashadi va yanada chuqurlashadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun madaniy identifikatsiya jarayoni ularning o'zligini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bola oiladan olingan madaniy belgilar, til, diniy urf-odatlar va san'at elementlari bilan ilk tanishuvni boshlaydi va ularni o'z hayotida tajriba qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari esa bolalarga kengroq ijtimoiy madaniy muhitni taqdim etib, turli madaniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. Shu tariqa, bolalar nafaqat tashqi guruhlar me'yorlariga moslashadi, balki o'z ichki madaniy qadriyatlarini jamiyat madaniyati bilan uyg'unlashtirishni o'rganadi. Bu jarayon bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi bilan

bog'liq bo'lib, ularning o'ziga xos madaniy identitetini mustahkamlashda poydevor vazifasini bajaradi.

Madaniy identifikatsiya ijtimoiylashuv jarayonini soddalashtirib, shaxsning o'zini ijtimoiy kontekstda qanday tutishini belgilaydi. Shu bilan birga, madaniy identifikatsiya shaxsga o'z madaniy kodlarini anglash va boshqalar bilan samarali kommunikatsiya qilish imkonini beradi. Madaniy identifikatsiyaning mustahkamligi ijtimoiy guruhlariga moslashishdagi ishonch va xavfsizlik hissini oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun madaniy identifikatsiya ijtimoiylashuv jarayonini soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yoshda bola o'zining madaniy kodlarini, odat va an'alarini o'zlashtirib, atrofdagi guruhlar bilan muloqotda qanday harakat qilishni o'rganadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari bu jarayonda bolaning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash uchun qulay muhit yaratadi, bu esa bolaga ijtimoiy guruhlariga ishonch bilan qo'shilish va o'zini xavfsiz his qilish imkonini beradi. Natijada, bola jamiyatdagi o'z o'rnini anglab, ijtimoiy muhitda samarali va faol qatnashishga tayyor bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar madaniy qadriyatlarni ko'proq o'z oilasi va mahalliy jamiyatidan o'rganadilar. Bu yoshda bolalar o'zlarini madaniy guruhlarining qismidek his qilishni boshlaydi, bunda rasm-rusumlar, bayramlar va kundalik urf-odatlar katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolaga madaniy qadriyatlarni o'rgatishda yanada kengroq ijtimoiy tajriba beradi, bu esa madaniy identifikatsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar madaniy qadriyatlarni asosan oiladan va mahalliy jamiyatdan o'rganish bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari orqali kengroq ijtimoiy tajriba orttiradilar. Bu muassasalarda o'tkaziladigan bayramlar, rasm-rusumlar va madaniy tadbirlar bolalarga o'z madaniy guruhining qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shu tariqa, maktabgacha ta'lim muassasalari bolaning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashda muhim platformaga aylanib, uning jamiyatdagi o'z o'rnini anglashini va ijtimoiylashuv jarayonini samarali amalga oshirishini ta'minlaydi.

Global axborot muhitida madaniy identifikatsiya ko'plab omillarning ta'sirida shakllanadi, shu jumladan media, transmilliy kontaktlar va ko'p madaniyatlilik. Shu sababli, yoshlar bir vaqtning o'zida bir nechta madaniyatga tegishli ekanligini his qilishi mumkin, bu esa ijtimoiylashuv jarayonini yanada murakkablashtiradi. Bu holat madaniy identifikatsiyaning ko'p qirrali va dinamik ekanligini ko'rsatadi. Global axborot muhitining ta'siri ostida maktabgacha yoshdagi bolalar ham ko'p madaniyatli muhitda tarbiyalanmoqda. Bu yoshda bolalar turli madaniy obrazlar, tillar va urf-odatlarni kuzatish orqali madaniy identifikatsiyani shakllantirish jarayoniga kirishadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari esa bunday murakkab va ko'p qirrali madaniy muhitni boshqarishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular bolalarga bir nechta madaniy qiyofalarni o'rganish, turli madaniyatlarga hurmat bilan qarash va moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu tariqa, maktabgacha ta'lim bolalarda madaniy identifikatsiyaning dinamik va ko'p qatlamli xususiyatlarini qabul qilish va unga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sanab o'tilgan identifikatsiya komponentlari orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni maktabgacha ta'lim yoshidan rivojlantirib borish muhimdir. Sababi bola aynan 5-7 yoshi ya'ni maktabgacha yosh davridan ko'nikmalarni o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi. Ko'nikma tushunchasiga ko'plab manbaalarda izohlar keltirilgan.

Ulardan biri:

Ko'nikma - egallangan bilimlar yig'indisi bilan ta'minlanadigan harakatni bajarishning subyekt tomonidan o'zlashtirilgan usuli.¹

Ijtimoiy ko'nikmalar esa shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda o'z xulqini boshqarish, muloqot o'rnatish va guruh bilan o'zaro ta'sirga kirishish imkonini beruvchi o'zlashtirilgan xatti-harakatlar majmuidir. Maktabgacha ta'lim yoshida rivojlanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarga quyidagilarni misol keltirsak bo'ladi:

- tengdoshlar bilan muloqot qilish;
- navbat kutish;
- kelishish va murosa qilish;
- belgilangan qoidalarga bo'ysunish va boshqalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda madaniy identifikatsiya orqali ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish ijtimoiylashuv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bola madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va ijtimoiy me'yorlarni asosan oila hamda maktabgacha ta'lim muassasalari orqali o'zlashtiradi. Aynan shu jarayonda bolaning tengdoshlar bilan muloqot qilish, guruh qoidalariga rioya etish, hamkorlik qilish, murosa va empatiya ko'rsatish kabi ijtimoiy ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Madaniy identifikatsiya bolaga o'zini muayyan ijtimoiy va madaniy guruh a'zosi sifatida his etish imkonini berib, ijtimoiy vaziyatlarda o'z xulq-atvorini ongli boshqarishiga zamin yaratadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarning erta yoshdan singdirilishi bolalarda ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy faollik va ijobiy muloqot ko'nikmalarining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim jarayonida madaniy identifikatsiyaga asoslangan tarbiyaviy faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik va psixologik ahamiyatga ega.

Xulosa: Madaniy identifikatsiya maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aynan 5–7 yosh davrida bolaning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy identiteti dastlabki shakllanish bosqichidan o'tadi hamda bu jarayon ijtimoiy ko'nikmalar rivoji uchun poydevor vazifasini bajaradi. Bola oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy me'yorlar orqali tengdoshlar bilan muloqot qilish, guruh qoidalariga rioya etish, murosa va empatiya ko'rsatish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Madaniy identifikatsiyaning shakllanganligi bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirib, o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglashiga yordam beradi. Shu bois, maktabgacha ta'lim jarayonida madaniy identifikatsiyaga asoslangan tarbiyaviy ishlarni tizimli va maqsadli tashkil etish bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni samarali rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Рыжов Б.Н. Umumiy psixologiya fanidan ilmiy-o'quv-uslubiy kompleks qo'llanma
2. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. – Moskva: Aspekt Press, 2018.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishining asoslari. – Moskva: Pedagogika, 2005.
4. Elkonin D.B. Bolalik psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001.
5. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 2004.

¹ Рыжов Б.Н. Umumiy psixologiya fanidan ilmiy-o'quv-uslubiy kompleks qo'llanma

6. Bandura A. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
7. Cooley C. H. Human Nature and the Social Order. – New York: Scribner's, 1902.
8. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1987.
9. G'oziyev E. G'. Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.